

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEVA NODIRA NEMATILLOYEVNA

**IQTISODIYOTNING XIZMAT K O`RSATISH SOHALARI TILIDA
METAFORANING O`RNI (INGLIZ VA O`ZBEK TILLARI QIYOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

UDK: 811.113.512.133 .871 (575.1)

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Xayrullayeva Nodira Nematilloevna

Iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalari tilida metaforaning o'rni (ingliz va o'zbek tillari qiyosida)..... 3

Хайруллаева Нодира Нематуллаевна

Роль метафоры в языке сферы сервис экономики (в сравнении английского и узбекского языков)..... 21

Khayrullaeva Nodira Nematilloevna

The Role of the Metaphor in the Language of the Economy Service Sector (in comparison of English and Uzbek languages)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAYEVA NODIRA NEMATILLOYEVNA

**IQTISODIYOTNING XIZMAT K O'RSATISH SOHALARI TILIDA
METAFORANING O'RNI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI QIYOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil999 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Abuzalova Mexriniso Kadirovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Jo'raeva Malohat Muhammadovna filologiya fanlari doktori, professor Xodjaeva Dilafruz Izzatilloevna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «07» dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (377 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» noyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «20» noyabr dagi 23-31 raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M.Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli sohalar leksikologiyasi, ularning lingvistik va kulturologik masalalarini talqin qiluvchi tadqiqotlar ko'lami kengayib bormoqda. Natijada xalqaro sohalardagi iqtisodiyotning bugungi taraqqiyoti tilning boshqa lug'aviy birliklari qatori mazkur soha leksik tizimida ham lisoniy o'zgarishlar, to'ldirilishlar bo'lishi muqarrarligini ko'rsatadi. Ayni kunlarda badiiy, publitsistik, so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan metaforik ma'no ko'chirish hodisasining ilmiy matndagi o'rni ko'plab tilshunoslar tomonidan ta'kidlanib, tillararo va madaniyatlararo munosabatlar asosida o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida har bir xalqning qardosh xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy aloqalari yuzasidan zaruriy bo'lgan lingvistik va nolingvistik omillarni o'rganish, turli sohalar hamda ixtisosliklar tilini shakllantirish singari ustuvor masalalar yechimiga qaratilgan ishlar tadqiqiga keng o'rin ajratildi. Bunday tadqiqotlar natijasida til va madaniyatlarda taqdim etilgan olamning metaforik tahlili, tillararo tafovut va o'xshashliklarni taqqoslash hamda muvofiqlashtirishning yangi metodlari yaratiladi, tilshunoslik turli nazariy xulosalar bilan boyib boradi, shuningdek, iqtisodiy nutq, turli millatlar metaforik nominatsiyasini qiyosiy tadqiq qilish nafaqat ko'rib chiqilayotgan iqtisodiy vaziyatni dunyoning obrazli ifodasi sifatida batafsil tasvirlashga, balki iqtisodiy o'zgarishlarni metaforik idrok etish xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda fanlarning uzviy integratsiyasi, xususan, tilshunoslik bilan hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish davr talabiga aylandi. "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"ligi¹ iqtisodiy nutqda metaforik modellashtirishni keng qamrovli qiyosiy lingvokognitiv o'rganish zaruriyatini ham qo'ydi. Zamonaviy tilshunoslikda iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasida ishlatiladigan metafora xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari qiyosida yangi metodologik tamoyillar va zamonaviy mezonlar asosida ilmiy o'rganish, jahon xalqaro standartlariga muvofiqlik kabi masalalarni atroflicha tadqiq etish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь. – № 258 (6952).

ommallashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Metafora dunyo tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham yaratilgan barcha tadqiqotlarda so'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq lingvistik hodisalarning markazida turadi. Uning kognitiv, lingvomadaniy, psixolingvistik va shu kabi aspektlarda talqini, ilmiy metaforaning qo'llanilishidagi dolzarb muammolar, shuningdek, uning olamning lisoniy manzarasini idrok etishdagi o'rni masalalari L.Alekseyeva, N.Arutyunova, A.Baranov, D.Dobrovolskiy, I.Gavrilina, I.Gromova, V.Demyankov, Y.Kubryakova, I.Raxilina, V.Teliya, A.Chudinov, E.Kassirer, X. Ortega-i-Gasset, A.Richarde, M.Bleyk, D. Davidson, G. Lakoff va M.Djonson, E.Mk.Kormark, G. Miller, R.Jakendorf, M. Turner, G. Foukonner hamda D.Xudoyberganova, Sh.Maxmaraimova, M.Mukarramov, G.Qobuljonova² kabi qator tilshunoslar

²Алексеева Л. Метафора в научном общении//Человек Коммуникация. Метафора в научном общении // Человек Коммуникация - Текст: сб. статей: В 2 ч. - Вып. 2. Ч. 1. - Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1998. -184 с.; Арутюнова Н. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. -С. 142-148; Баранов А. О типах совместимости метафорических моделей / А. Баранов // Вопросы языкознания. – М., 2003. -С. 175-186; Добровольский Д. Национально-культурная специфика во фразеологии (I) // Журнал Вопросы языкознания. – М., 1997, – №6, – С. 97-112; Гаврилина И. Моделирование и когнитивные основания терминсистемы профилактической токсикологии в современном английском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. М., 1998. - 24с.; Громова И. Когнитивные аспекты семантики юридических терминов. – Калининград: КГУ, 1999, – С. 28-43; Демьянков В. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода//Вопросы языкознания. – М., 1994, – С. 145-159; Кубрякова Е. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН. Ин-т языкознания. – М.: Языки славянской культуры, 2004.-560 с.; Рахилина Е.В. О тенденциях в развитии когнитивной семантики // Известия РАН. – Сер.: Литература и язык, 2000. – С. 275-291; Телия В. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира Текст. / В.Н. Телия // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 32-56; Чудинов А. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000): монография / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2001.-С.225.; Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.-512 с.; Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры // Теория метафоры : сб. : пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой ; общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. — М.: Прогресс, 1990. -512 с.; Black M. More about Metaphor // Metaphor and Thought / Ed. by A.Ortony. Second Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. P.341.; Ричарде А. Философия риторики // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 164-175.; Davidson D. What Metaphors Mean // Pragmatics. Edited by Steven Davis. – New York: Oxford Univ. Press, 1991.P. 32-89.; Lakoff G. and Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago and London: University of Chicago Press, 1980. p.89-125; Mc.Cormack E. "Cognitive Theory of Metaphor". – Fil.: Garnet Education, 1990; Miller G. The place of language in a scientific psychology // Psychological Science, 1(1). – Georg., 1990. Pp 122- 233 <https://doi.org/10.1111/j.1467-9280.1990.tb00059.x>; Jackendoff R. What is a concept, that a person may grasp it? // Mind and Language. – N.Y., 1989. - Vol. 4.- №2, P.321-334; Turner M. An Image-schematic Constraint on Metaphor // Conceptualizations and Mental Processing in Language / Eds. R. A. Geiger and V. Rudzka-Osty. – Berlin., New York: Moulton de Gruyter, 1993; Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Constructions in Natural Language. – Cambridge, 1994.-Pp.211-228.; Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари док-ри дисс.– Тошкент, 2015. -240 б.; Махмараймова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фанлари док-ри дисс. – Самарқанд, 2020.-246 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент:

tomonidan o`rganilgan. Ammo iqtisodiyotning xizmat ko`rsatish sohasida ishlatiladigan metafora xususiyatlari hamda mazkur soha metaforalarining qardosh bo`lmagan tillar kesimidagi tadqiqi amalga oshirilmagan. Shunga ko`ra ingliz va o`zbek tilida iqtisodiyot terminologiyasining metaforik tarkibi ilk bor tadqiq etilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta`lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2016-2023-yillarga mo`ljallangan «O`zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari» hamda 2017-2021-yillarga mo`ljallangan «Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o`rgatish jarayonlari integratsiyasi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o`zbek iqtisodiy matnlarida ishlatidigan metaforalarning qo`llanish xususiyatlarini tavsiflash, taqqoslash hamda ulardagi differensial xosliklarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotning xizmat ko`rsatish sohalarida qo`llanadigan metaforaning funksional xususiyatlarini nazariy o`rganish, metaforalarning mavjud tasniflarini tahlil qilish;

iqtisodiyot sohasiga tegishli metaforalarni tanlash va tizimlashtirish;

ingliz va o`zbek tillarining zamonaviy iqtisodiy nutqida ishlatiladigan lingvoinqtisodiy metaforalarning qiyosiy tavsifini berish;

dunyo milliy iqtisodiy manzarasining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashda metaforalarning rolini izohlash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida ingliz va o`zbek iqtisodiy matnlaridagi metaforalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotning xizmat ko`rsatish sohalari tili terminologiyani metaforizatsiyalash jarayoni, lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish, qiyoslash, kognitiv hamda uslubiy-kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o`zbek lingvomadaniyatida iqtisodiyotning xizmat ko`rsatish sohalari tilidagi metaforalarning genetik-kulturologik, ijtimoiy-tarixiy va lisoniy-madaniy omillar ta`sirida shakllanganligi, metaforaning iqtisodiyot tilidagi o`mi masalalari insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligi dalillangan;

tadqiq etilayotgan tillardagi iqtisodiyotga oid metaforalarning o`ziga xosligi maxsus semantika bilan bevosita qo`llanishi, uning nominativ, informativ, mnemonik, matn hosil qilish, emotsional baholash, konspiratsiya, konseptual,

tasviriy, o'yin, marosimiy (ritual), janr hosil qilish kabi vazifalarda qo'llanilishi hamda iqtisodiy matnda aks etgan iqtisodiy tushunchalarni adresatga vizual, obrazli tarzda ifodalash orqali yetkazish imkonini berishi asoslangan;

qiyoslanilayotgan lingvomadaniyatlarda iqtisodiy metaforalarni ma'lum bir lisoniy ma'noviy guruhga ajratishda semantik omil birlamchi ahamiyatga ega ekanligi, ularni ma'lum bir mavzuiy guruhga ajratish chegaralanmaganligi, har qanday zamon va makonda metaforalarni yaratish imkoniyati mavjudligi, metaforaning semantik tabiatidan kelib chiqqan holda ularni ma'lum bir lisoniy ma'noviy guruhlarga ajratish mumkinligi aniqlangan;

o'zbek tilidagi xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanuvchi iqtisodiy metaforalarning kelib chiqishi va iste'molga kiritilishida ingliz tilining dominantligi, mazkur metaforalarning rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar ustunlik qiladigan iqtisodiyot xarakterli ekanligi, o'zbek milliy iqtisodiyoti esa asosan qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoatiga asoslangani va bu holat tilda ham o'z ifodasini topishi bilan izohlanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yig'ilgan 350 dan ziyod metaforalar asosida ingliz tilida iqtisodiy metaforalarning soni o'zbek tilidagiga nisbatan ko'pligi, ularning yasash tamoyillari, mavzuiy va tarkibiy-semantik belgilari kompleks holda aniqlangan;

ingliz-o'zbek iqtisodiy metaforalarining lisoniy xususiyatlarini yoritish bilan bog'liq nazariy xulosalar soha lingvistikasi shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ahamiyatli bo'lgan ilmiy yondashuvlarning yuzaga kelishiga xizmat qilishi izohlangan;

iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha yig'ilgan metaforik birliklar o'quv lug'atchiligini yaratishda hamda kasb egalari nutqini boyitishda xizmat qilishi amaliyotda aniqlangan;

dissertatsiya materiallari maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda manba bo'lishi, filologiya va jurnalistika yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan darsliklar, shuningdek, soha lingvistikasiga oid ilmiy qarashlarni takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan materiallarning respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning kuzatish, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish, qiyoslash, kognitiv hamda uslubiy-kontekstual tahlil usullari orqali dalillanganligi, tadqiqotning materiali sifatida ensiklopediyalar, soha jurnallari, badiiy va davriy nashr materiallari asosida termin-metaforalardan foydalanilgani, tahlil hamda talqin qilinganligi, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz-o'zbek iqtisodiy matnlarida metafora nominatsiyasini qiyosiy tavsiflash va metodologiyasini ishlab chiqishda hamda tadqiqot materiallari iqtisodiyotning milliy-mental jihatlarini lingvokulturologik

o'rganish uchun manba bo'la olishda nazariy material bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallar va xulosalarning kognitiv tilshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti, stilistika, iqtisodiyotga ixtisoslashgan talabalarga "Sohada o'zbek tilining qo'llanishi", "Iqtisodiy atamalar va ish yuritish", "Nutq madaniyati" fanlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va soha xodimlariga qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalari tilida metaforalarni o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalari tilidagi metaforalarning genetik-kulturologik, ijtimoiy-tarixiy va lisoniy-madaniy omillar ta'sirida shakllanganligi, metaforaning iqtisodiyot tilidagi o'zni masalalari insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligiga oid nazariy xulosalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022-yil 15-noyabrdagi №321-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalari tilidagi metaforalarning talqin va tadqiqi mavjud dasturlar va qo'llanmalarda keng foydalanilib, ta'lim jarayonida sohalar bo'yicha so'z boyligi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

tadqiq etilayotgan tillardagi iqtisodiyotga oid metaforalarning o'ziga xosligi maxsus semantika bilan bevosita qo'llanishi, uning nominativ, informativ, mnemonik, matn hosil qilish, emotsional baholash, konspiratsiya, konseptual, tasviriy, o'yin, marosimiy(ritual), janr hosil qilish kabi vazifalarda qo'llanilishi hamda iqtisodiy matnda aks etgan iqtisodiy tushunchalarni adresatga vizual, obrazli tarzda ifodalash orqali yetkazish imkonini berishiga oid nazariy xulosalardan 2020-2021-yillarda bajarilgan A-OT-2021-2 raqamli "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 11-noyabrdagi №04/1-3092-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari ikki til doirasidagi iqtisodiy metaforalar tahliliga asoslangan soha lug'atlarini yaratishga oid yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan boyigan.

qiyoslanilayotgan tillardagi iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalari tilidagi metaforalarning fanlararo tabiati va yagona talqinda ishlatiladigan tushuncha ma'nosini yetarli darajada yetkazish zarurati bilan bog'liq bo'lgan fiksatsiya va qo'llanilish sohasidagi metaforalarni bevosita tartibga solish zarurligi bilan bog'liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2018-2019-yillarda bajarilgan AQShning "FEP- faculty enrichment program" mavzusidagi xorijiy

ilmiy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 23-apreldagi 05-01-0817-son ma'lumotnomasi). Natijada iqtisodiy metaforalar muloqotda fikr ifodalashga doir yangi ma'lumotlarni ko'rib chiqishda zaruriy ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan;

o'zbek tilidagi xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanuvchi iqtisodiy metaforalarning kelib chiqishi va iste'molga kiritilishida ingliz tilining dominantligi, mazkur metaforalarning rivojlangan mamlakatlar uchun xizmatlar ustunlik qiladigan iqtisodiyot xarakterli ekanligi, o'zbek milliy iqtisodiyoti esa asosan qishloq xo'jaligi, shuningdek, tog'-kon sanoatiga asoslangani va bu holat tilda ham o'z ifodasini topishi bilan bog'liq izoh va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" kabi turkum ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 4-noyabrdagi №1/275-son ma'lumotnomasi). Natijada telekompaniya ijodiy jamoasining sohaviy, keng omma tinglovchilarining lingvokulturologik bilimlari boyitilishiga, ingliz va o'zbek tillarida iqtisodiy metaforalarning o'rnini, mazmun-mohiyatini, bildirilgan fikrni teletomoshabinlarga mantiqiy yetkazishni boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Lingvoiqtisodiyot yangi ilmiy fan sifatida**» deb atalgan birinchi bobi «Iqtisodiy atamalarning shakllanishi va taraqqiyoti», «Metafora – mohiyatni o'rganish vositasi», «Metaforaning iqtisodiyot tilidagi o'rni masalalari» hamda «Iqtisodiy matndagi metafora vazifalari» nomli to'rt fasldan tarkib topgan. Bu fasllarda, asosan, tilshunoslikda metaforik tadqiqotlarning nazariy asoslari muhokama qilingan bo'lib, iqtisodiy atamalarning shakllanishi va taraqqiyoti, ingliz va o'zbek tillaridagi metaforalarning xarakterli xususiyatlari, metaforaning iqtisodiyot tilidagi o'rni, metaforaning iqtisodiy matnlardagi asosiy vosita sifatida

o'rganilish mohiyati hamda vazifalari, ingliz va o'zbek tillarida iqtisodiy metaforalarning shakllanish yo'llari kabi masalalar muhokama qilingan.

Birinchi bobning «*Iqtisodiy atamalarning shakllanishi va taraqqiyoti*» deb nomlangan birinchi faslida iqtisodiy atamalarning shakllanish tarixi hamda taraqqiyoti haqida so'z boradi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning global jarayonlari maxsus mehnat bozorini shakllantirishni talab qiladi, unda ingliz tilini ham professional muloqot tili sifatida yuqori darajada biladigan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin. Yangi ilmiy fan sifatida lingvoiqtisodiyot doirasida integratsiyalashgan ta'limga yangi yondashuvlarni shakllantirish zarurati tug' ilmoqda. Lingvoiqtisodiyotning mustaqil fan sifatida rivojlanish muammosi ba'zi nazariy ishlar doirasida juda keng muhokama qilinmoqda va bu bir qator tadqiqot mavzulari uchun muammo yechimi sifatida xizmat qiladi³. Shuni ta'kidlash kerakki, "lingvoiqtisodiyot" atamasining o'zi birinchi marta T.M. Tarasevichning maqolasida⁴ ishlatilgan, jahon tilshunosligida esa "iqtisodiy tilshunoslik" (economiclinguistics - ekonomik tilshunoslik) atamasi ma'qul ko'riladi⁵. Lingvoiqtisod tushunchasi ostida «tilshunoslik va iqtisod o'rtasidagi munosabat, iqtisodiy nazariya, iqtisodiy tarix va umuman iqtisodiy amaliyot (sotsiologik yoki falsafiy) tushuniladi»⁶. F.I.Sisoyev tadqiqotida lingvoiqtisodiyotning mustaqil fan sifatida rivojlanishida ingliz tili pragmatik vazifasining konseptual jihatlari ochib berilgan⁷.

Iqtisodiy g'oya va u bilan bog'liq tushuncha hamda atamalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan boshlangan. Qadimgi Hindistonda yaratilgan vedalarda, zardushtiylik (zoroastrizm) dinining (islomgacha) muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto», ya'ni «Hayot yo'riqnomasi»da muhim iqtisodiy fikrlar bayon etilgan. «Avesto»da chorvadorlar hamkori Yimning xizmati ulug'lanadi, kuchli sovuq, qor va suv to'fonlaridan mavjudotlarni qutqarish uchun *varu* (ilk iqtisodiy tushuncha) - *qo'rg'on* qurdirgan, unga suv o'tkazadi, barcha o'simliklar urug'i va olovni keltiradi. Iqtisodiyot sohasi leksik tizimining rivojlanish tarixini turkiy xalqlar madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk"⁸ asarisiz tasavvur etish qiyin. Muallifning asarida boshqa soha terminologiyasidan tashqari bugungi kunda tarixiy leksik birlikka aylangan ba'zi iqtisodiyotga oid atamalar ham qo'llangan. Jumladan,

Asig' - foyda (39-bet).

³ Yaroslavova E., Kosterin V. Using an integrative approach in teaching English language and e-commerce // 11th International Technology, Education and Development Conference. Dates: March 6-8. 2017. –Pp. 9982-9987 DOI: 10.21125 / inted.2017.2382; Manyasi N. B. Integrated approach in teaching English language: the practice in Kenya // International Journal of Education and Research. 2014. Vol. 2 No. 4. –Pp. 253-264 .

⁴ Tarasevich T.M. Проблемы интеграции экономики и лингвистики на современном этапе // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2008. No 4. –Pp. 246-250.3, к.248

⁵ Jayalakshmi R. An integrated approach to business English. 2017. No 2–254 p. ISBN: 0973-3728 , 5 к. 74

⁶ Сысоев Ф.И. Экономика и лингвистика: теория, история, практика. Terra Economicus. 2019. No 2. –Pp. 163-175. –С.163.

⁷ Сысоев Ф.И. Экономика и лингвистика: теория, история, практика// Terra Economicus. 2019. No 2. –Pp. 163-175. –С.163.

⁸ Qoshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. III tomlik. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –B.44- 421.

Alim - ayrim kishilardan olinadiga narsa, qarz (43-bet).

Ugun –pul, tanga, chaqa (44-bet).

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'rta Osiyoning chor Rossiyasiga qo'shib olinishi natijasida mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berganligi tarixdan ma'lum. Ijtimoiy tuzum til taraqqiyotiga ham ta'sir qildi va o'zbek tili tarkibi ruscha, baynalminal so'z va terminlar bilan kengayib, lug'at boyligining oshishiga, so'z yasashning ayrim jihatlariga va semantik tizimining kengayishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda nutqimizda qo'llanilayotgan iqtisodiy so'zlar ayrim fonetik o'zgarishlar bilan ishlatilgan: *beksil (veksil)*, *bulanka (blank qog'oz)*, *kredit(kredit)*, *budjet (budjet)*, *bogaltir (buxgalter)* kabi.

Yuqorida keltirilganlardan ayon bo'lmoqdaki, iqtisodiy so'z va atamalar shakllanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Iqtisodiyot jamiyatning o'zagi bo'lib, har qanday davrda muhim rol o'ynaydi. Mazkur sohaga mansub lingvistik birliklar barcha jamiyat ahliga tushunarli, mantiqan asoslangan bo'lishi kerak.

Bobning ikkinchi «*Metafora – mohiyatni o'rganish vositasi*» deb nomlanuvchi faslida zamonaviy iqtisodiy nutqda eng faol qo'llaniladigan ko'chimlar orasida asosiylaridan biri metafora haqida fikr yuritiladi. Aynan metaforalardan foydalanish matnni yorqinroq va ifodali qilib, muallifga nafaqat o'quvchi e'tiborini jalb qilish, balki uni esda saqlab qolish imkonini beradi.

Mazkur bobning ikki «*Metaforaning iqtisodiyot tilidagi o'rni masalalari*» hamda «*Iqtisodiy matndagi metafora vazifalari*» deb nomlangan fasllarida iqtisodiy metaforalarning funksiyalari haqida so'z boradi.

1. Nominativ atash funksiyasi. Ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlarning muhim vazifalaridan biri nominativ funksiyadir (lot. *nominatio* — “nomlash, belgilash”). Mazkur vazifa oddiy metaforalar yordamida amalga oshiriladi, bunday turdagi metaforalar o'zining obrazlilikini yo'qotgan bo'ladi va to'g'ridan-to'g'ri nom vazifasini bajaradigan metafora sanaladi.⁹ *Forgiven Sunday*, *black trade*, *pansies* kabi, *tushgan pul*, *soliqqa tortmoq*, *pul aylanmasi*, *investitsion jozibadorlik*, *kredit portfeli*, *iqtisodiy o'smoq*, *qiymat zanjiri*, *dollar tushmoq*, *pul almashtirmoq* kabi keng tarqalgan, odatiy birlikka aylangan metaforalarni misol qilish mumkin. Nominativ funksiya asosida iqtisodiy voqelik obyekti yoki hodisasi metaforik nomlanadi va iqtisodiy lug'at zaxirasini to'ldiradi. Natijada yangi leksik birliklar paydo bo'ladi.

2. Informativlik(axborot) funksiyasi. Iqtisodiy metaforalarning kommunikativ funksiyasi orqali iqtisodiy jarayonlar anglanadi, iqtisodiyot olamidagi voqealar haqidagi ma'lumotlar ifodalanadi, ularni saqlash va uzatish imkoni yaratiladi hamda uning yordamida bu ma'lumotlar o'quvchilar, tinglovchilarga eshitimli, qiziqarli bo'ladi, jumladan: *aholining iste'mol kayfiyati*, *erkin bozor munosabatlari*, *kartalar bilan muomala qilmoq* kabi tanish assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. *Hozirgi rivojlanib borayotgan erkin iqtisodiyot bozorida aholining iste'mol kayfiyati dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda*. Ingliz tilida: *-A new commodity spawns a lucrative, fast-growing industry, prompting antitrust*

⁹ http://mobile.studbooks.net/2427/literatura/funksii_metafory_tekste


*regulators to step in to restrain those who control its flow. A century ago, the resource in question was oil. Now similar concerns are being raised by the giants that deal in data, the oil of the digital year*¹⁰. Demak, har ikkala tilda ham metaforalarning informativlik funksiyasi iqtisodiyot olamidagi axborotlarni yetkazishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari iqtisodiy matnda metaforalarning mnemonik, matn hosil qilish, emotsional-baholash, konspiratsiya, konseptual tasviriy, o'yin, marosimiy(ritual), janr hosil qilish kabi vazifalari mavjudki, iqtisodiy tushunchalarni vizual, tushunarli va turlicha tasvirlash imkonini beradi hamda tabiatda namoyon bo'ladigan murakkab hodisalarga ta'riflar beradi.

Dissertatsiyaning «**Ingliz va o'zbek tillari iqtisodiy kontekstida metaforalarning qiyosiy tahlillari**» deb nomlangan ikkinchi bobi «Iqtisodiy metaforalarning semantik xususiyatlari», «Iqtisodiy metaforalarning struktur xususiyatlari», «Iqtisodiy metaforalarning konseptual tahlillari» singari uch fasldan tashkil topgan. Mazkur bobning «*Iqtisodiy metaforalarning semantik xususiyatlari*» deb nomlanuvchi faslida iqtisodiy metaforalarning semantik, ya'ni mazmun jihatdan guruhlariga ajratilishi haqida so'z boradi. Metafora tadqiqotchisi A.P. Chudinov ularni quyidagicha guruhlaydi:

- I. Tabiat bilan bog'liq iqtisodiy metaforalar;
- II. Antropomorfik iqtisodiy metaforalar;
- III. Sotsiomorfik iqtisodiy metaforalar.
- IV. Artifaktik iqtisodiy metaforalar¹¹. (2.1-chizma)

Bizning tadqiq obyektimiz bo'lgan iqtisodiy metaforalar yuqoridagi tasnifda qayd yetilgan ijtimoiy (sotsiomorfik) metaforalar guruhidan o'rin olgan.



“2.1-chizma”. Iqtisodiy metaforaning semantik tasnifi

Tabiat bilan bog'liq iqtisodiy metaforalarga tabiiy jarayonlarni ifodalovchi metaforalar kiradi:

An economic boom- The current charismatic president, has fostered an economic boom that has seen the economy growing at 5% .

¹⁰ O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi –Tahliliy Jurnal. T., 2020. -№17. -100 b.

¹¹ Чудинов А.П. Россия в метафорическом зеркале: Когнитивное исследование политической метафоры (1991—2000): Монография / Урал. гос. пед. ун-т. — Екатеринбург, 2001. – С. 53.

The mountain of debt -They may think that the Bank will conclude after looking at the mountain of debt, the stuttering US economy and the rising pound that it is too risky to pull the interest-rate trigger ¹².

O'zbek tili iqtisodiy kontekstida tabiat bilan bog'liq metaforalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

Investitsion iqlim (Investment climate): – Iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarning kombinatsiyasi mamlakatda investitsion iqlimni keltirib chiqaradi ¹³.

*Risklar tabiati (The nature of the risks): Shu risklarning tabiatiga qarab, banklar o'zining omonat va kreditlar berish tizimini belgilab qo'yadi*¹⁴.

Bu ikki qardosh bo'lmagan tilda uchraydigan bu tur metaforalarning farqli jihati shundaki, ingliz tilida iqtisodiy inqiroz ma'nolarini beruvchi metaforalar ko'p uchrasa, o'zbek tilida investitsiyalar hamda sog'lom rivojlanish, raqobat bilan bog'liq metaforalarni kuzatish mumkin. Shular bilan bir qatorda miqdor jihatdan ingliz dunyosida uchraydigan tabiiy hodisalar, holatlar bilan bog'liq metaforalar LMGLari ustunlik qiladi. Sababi ingliz jamiyatida har qanday iqtisodiy holatga munosabat tabiiy holat deb qaraladi. O'zbek tili imkoniyatlari bilan o'xshash jihati shundaki, har ikkala tilda ham struktur jihatdan ikki komponentli iqtisodiy metaforalar uchraydi. Uch va to'rt komponentdan iborat iqtisodiy metaforalarni faqatgina ingliz tilida kuzatish mumkun. Yana bir farqli jihati ingliz tilida ibora shaklidagi iqtisodiy metaforalarning ham uchrashi. Masalan, *Pinch yourself to make sense of it all in "fire and fury"* iqtisodiy metaforasi ibora shaklidagi jumla bo'lib, *butun vujuding bilan his qilishing kerak* degan o'zbek tili muqobiliga to'g'ri keladi. Morfologik jihatdan o'xshashlik jihati shundaki, har ikkala tilda ham sifat+ot shaklidagi metaforalar ko'p uchraydi: *windfall profit, sog'lom fikr* hamda ingliz tilida gap shaklidagi tabiiy holatlar bilan bog'liq metaforalar ko'p kuzatiladi: *Economy is starving, Economy is thirsty*.

II. Antropomorfik iqtisodiy metaforalar. Bunday iqtisodiy metaforalarning asosini inson bilan bog'liq omillar tashkil etadi.

Iqtisodiy metaforik ma'noning katta qismi inson tana a'zolarini ko'chma ma'noda qo'llashdan kelib chiqadi. Inson tanasi metaforik ma'noning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Ingliz tilida inson organizmi bilan bog'liq iqtisodiy metaforalarni kuzatamiz:

Executive education at your fingerprints. Executive education at your fingerprints. Expand your capabilities with the economist executive education Navigator. (Advertisement) ¹⁵.

Talking heads. React thinking in Demented Times. The Vienne Circle and the epic Quest for the foundation of Science ¹⁶.

O'zbek tilida:

¹² Brightline Initiative. The Economist. –London: Express, January 13th 2018.- p. 20

¹³ Бозор, пул ва кредит. Ойлик илмий-амалий иқтисодий журнал. –Т., 2020. -№11. ISSN 2010-6580. –Б. 55

¹⁴ Бозор, пул ва кредит. Ойлик илмий-амалий иқтисодий журнал. –Т., 2019.-№10. ISSN 2010-6580. – Б. 33

¹⁵ Brightline Initiative. The Economist. –London: Express, January 13th 2018, P. 76

¹⁶ Brightline Initiative. The Economist. –London: Express, January 13th 2018. P. 76

Markaziy Osiyoning yuragi (The heart of Central Asia)-“O‘zbekiston biz uchun Markaziy Osiyoning yuragidir”, – deydi M. Rifat Hisarjak o‘g‘li, Turkiya savdo birjalari va palatalari ittifoqi raisi¹⁷.

Psixologik jarayonlar bilan bog‘liq iqtisodiy metaforalar ham xilma-xil bo‘lib, miqdor jihatdan ko‘pchilikni tashkil etadi. Kuzatamiz: *Siklik depressiya (Cyclical depression)*: Bozor munosabatlari va uning siklik depressiyalari ko‘rinishi ajralmas qismi hisoblanadi.; *Aholining iste‘mol kayfiyati (Consumption mood of the population)*: Hozirgi zamon talabi shuni ko‘rsatadiki, aholining iste‘mol kayfiyati ancha yuqori darajaga ko‘tarilgan¹⁸.

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, ingliz tilida ko‘pincha inson organizmi bilan bog‘liq metaforalar bank tizimidagi munosabatlarni ifodalashga xizmat qilsa, o‘zbek tilidagi metaforalar esa sof iqtisod sohasiga mansub ekanligi bilan farqlanadi. Ingliz tilida bu bo‘linga bog‘liq ibora shaklidagi iqtisodiy metaforalarni ham uchratish mumkin: *slower death by a thousand cuts* iqtisodiy metaforasi ibora shaklidagi jumla bo‘lib, ko‘chma ma‘noda bu metafora osonlik, yengillik bilan degan ma‘nolarni ifodalaydi. Har ikkala tilda ham sifat+ot shaklidagi metaforalar ko‘p uchraydi: *kredit qobiliyati, financial repression, a fearful welcome...*

Sintaktik jihatdan predikativ munosabatga asoslangan antropomorfik metaforali jumlar kuzatildi: *economy is biting, let’s embrace new technology in economy*. O‘zbek tilida esa hokim komponent fe‘l asosli metaforalar miqdoran ko‘pligi aniqlanildi: *stress testdan o‘tkazish, boqimandalik kayfiyatida o‘smoq*.

III. Sotsiomorfik iqtisodiy metaforalar:

1. Tibbiyot bilan bog‘liq iqtisodiy metaforalar LMGi. Bunday metaforalar guruhining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda tibbiyotga oid atamalar faol qo‘llanishda bo‘ladi. Ingliz tilidagi tibbiyot bilan bog‘liq iqtisodiy metaforalarga *anemic economy; healthy economy; sick economy; financial cancer; to heal the finances; market ills; chronic shortfall; endemic poverty* kabilarni kiritish mumkin.

A) Crisis will be painful to everyone, and no single remedy will be enough.

B) British car industry now looks healthier.

Bank operatsiyalari (bank operation). Bank operatsiyalari bu bankning o‘zida olib boriladigan moliyaviy xizmat turlarining amalga oshirilishidir. Masalan: *Moliyaviy masalalar va bank operatsiyalari bo‘yicha zamonaviy va yanada chuqurroq maslahat berish imkonini yaratilishidan umidvor*. (Bozor, pul va kredit/ Oylik ilmiy-amaliy iqtisodiy jurnal. 12/2020. ISSN 2010-6580. – B.13).

2. Xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan bog‘liq iqtisodiy metaforalar LMGi:

Turizm bilan bog‘liq iqtisodiy metaforalar:

1. Half way along the golden coast, where the sand meets the sea in a sparkling display of gold and sapphire

2. The island is a feast for the eyes and soul, with its emerald greenery tumbling down to a coastline honeycombed with pebble bays.

O‘zbek tilida:


¹⁷ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Tahliliy jurnal. –T., 2020. -№5. -B. 36

¹⁸ Бозор, пул ва кредит. Ойлик, илмий-амалий иқтисодий журнал. –Т.,2020. -№11. ISSN 2010-6580. – Б. 19

Tejamli kruizlar (economical cruises). Tejamli kruizlar sifatida aholi iste'moli va ehtiyojidan kelib chiqib belgilangan narxlar asosida yaratilgan, dam olish uchun rejalashtirilgan dengiz sayohati tushuniladi. Masalan: *Tejamli kruizlar uchun katta bo'lmagan eski namunadagi barcha qulayliklar yaratildi*¹⁹.

Hordiq sanoati (Leisure industry). O'z ma'nosida: sanoat – bu ishlab chiqarish turi hisoblanadi. Ko'chma ma'noda: hordiq sanoati – kurort zonalar uchun, turistlarning dam olishi, hordiq chiqarishi uchun yaratilgan qulay sharoitlarni o'z ichiga oladi. Masalan: *Bu Las Vegas shahri hordiq sanoatining lideri sanaladi*²⁰.

